


**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA'LIM, FAN VA  
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

*70730102 Shaharsozlik va landshaft arxitekturasi magistratura  
mutaxassisligining*

***MALAKA TALABLARI***



**Toshkent-2024**

**ISHLAB CHIQLIGAN :**

Toshkent arxitektura-qurilish universiteti.

**TASDIQLANGAN VA AMALGA KIRITILGAN:**

O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligining  
2024-yil « 01 » 08 dagi 277 - sonli buyrug‘i bilan.

**JORIY ETILGAN:**

O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi.

Mazkur Malaka talablari “Oliy ta’lim davlat ta’lim standarti. Asosiy qoidalar”, “Oliy ta’lim davlat ta’lim standarti. Oliy ta’lim yo‘nalishlari va mutaxassisliklari klassifikatori”, O‘zbekiston Respublikasi Milliy va tarmoq malaka doiralari (ramkasi), kasbiy standartlar va kadrlar buyurtmachilari takliflariga muvofiq ishlab chiqilgan va rasmiy me’yoriy-uslubiy hujjat hisoblanadi.

O‘zbekiston Respublikasi hududida Malaka talablarini rasmiy chop etish huquqi O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligiga tegishlidir.

## MUNDARIJA

T/r		bet
1.	<b>Umumiy tavsifi .....</b>	4
1.1.	<b>Qo‘llanish sohasi .....</b>	4
1.1.1.	<b>Malaka talabining qo‘llanishi .....</b>	4
1.1.2.	<b>Malaka talablarining asosiy foydalanuvchilari .....</b>	4
1.2.	<b>Kasbiy faoliyatlarining tavsifi .....</b>	4
1.2.1.	<b>Kasbiy faoliyatining sohalari .....</b>	4
1.2.2.	<b>Kasbiy faoliyatlarining obektlari .....</b>	5
1.2.3.	<b>Kasbiy faoliyatlarining turlari .....</b>	5
1.2.4.	<b>Kasbiy vazifalari .....</b>	5
2.	<b>Kasbiy kompetensiyalariga qo‘yiladigan talablar .....</b>	7
2.1.	<b>Kasbiy kompetensiyalar .....</b>	8
3.	<b>Amaliyotlarga qo‘yiladigan talablar .....</b>	9
4.	<b>Fanlar katalogining tuzilishi .....</b>	9
	<b>Bibliografik ma’lumotlar .....</b>	10
	<b>Kelishuv varag‘i .....</b>	11

## **1. Umumiy tavsifi**

70730102 - Shahar sozlik va landshaft arxitekturasi mutaxassisligi bo'yicha magistrlar tayyorlovchi kunduzgi ta'lim shakllarida amalga oshiriladi. O'qish kredit – modul tizimi asosida tashkil qilinadi. Magistratura dasturining me'yoriy muddati 2 yil.

### **1.1. Qo'llanish sohasi.**

#### **1.1.1. Malaka talabining qo'llanilishi.**

Malaka talabi 70730102 - Shahar sozlik va landshaft arxitekturasi magistratura mutaxassisligi bo'yicha magistrlar tayyorlovchi barcha oliy ta'lim tashkilotlari uchun talablar majmuini ifodalaydi.

#### **1.1.2. Malaka talablarining asosiy foydalanuvchilari:**

mazkur magistratura mutaxassisligi bo'yicha malaka talablari, o'quv reja va fan dasturlarini ishlab chiqish va yangilash, ular asosida o'quv jarayonini samarali amalga oshirish uchun mas'ul hamda o'z vakolat doirasida bitiruvchilarning tayyorgarlik darajasiga javob beradigan oliy ta'lim tashkilotining boshqaruv xodimlari (rektor, prorektorlar, o'quv bo'limi boshlig'i, dekanlar va kafedra mudirlari) va professor o'qituvchilari;

magistratura mutaxassisligining o'quv rejasi va fan dasturlarini o'zlashtiruvchi oliy ta'lim tashkilotining talabalari;

magistratura bitiruvchilarining tayyorgarlik darajasini baholashni amalga oshiruvchi Davlat attestatsiya komissiyalari;

ta'limni boshqarish bo'yicha vakolatli davlat organlari;

oliy ta'lim tashkilotlarini moliyalashtirishni ta'minlovchi organlar;

oliy ta'lim tizimini akkreditatsiya va sifatini nazorat qiluvchi vakolatli davlat organlari;

kadrlar buyurtmachilari va ish beruvchi tashkilot va korxonalar;

oliy ta'lim tashkilotlariga o'qishga kirayotgan bakalavriat bitiruvchilari va boshqa manfaatdor shaxslar.

### **1.2. Kasbiy faoliyatlarining tavsifi.**

#### **1.2.1. Kasbiy faoliyatining sohalari:**

70730102 - Shaharsozlik va landshaft arxitekturasi mutaxassisligi – ishlab chiqarish va texnika sohasidagi mutaxassislik bo'lib, barcha ta'lim muassasalarida mutaxassislikka oid fanlarni o'qitish, O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi va tarmoq ilmiy tadqiqot institutlari, markazlari, ilmiy ishlab chiqarish birlashmalarida ilmiy tadqiqot faoliyatini yuritish, turli mulkchilik shaklidagi korxonalarda, nodavlat va notijorat tashkilotlarida, markaziy mahalliy davlat boshqaruvi organlarida, arxitektura va shaharsozlikning turli soha va tarmoqlarini boshqarish, ularni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish istiqbollari belgilash bo'yicha iqtisodiy, tashkiliy masalalar yechimlarini arxitektura va

rivojlanish qonuniyatlari va zamonaviy konsepsiyalari asosida ishlab chiqish va amalga oshirishga qaratilgan hamda kasbiy ko‘nikmaga, mutasaddilik qobiliyatiga yo‘naltirilgan inson faoliyatining vositalari, usullari va uslublarning majmuasini qamrab oladi.

### **1.2.2. Kasbiy faoliyatlarining obektlari:**

O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi va tarmoq ilmiy tadqiqot institutlarida, ilmiy tadqiqot markazlari, loyihalash institutlari, ilmiy-ishlab chiqarish birlashmalari;

respublika, regionlar, viloyatlar, shaharlar, aholi joylarini shaharsozlik va ko‘kalamzor hududlarini, tumanlar, ularning sanoat, agrar ishlab chiqarish komplekslarini shaharsozlik rejalashtirish jarayonlari;

katta shaharlar aglomeratsiyalari hududlarini shaharsozlik loyihalash va kompleks qurish va ko‘kalamzor hududlarini rejalashtirish, shaharlarning aholi yashaydigan qismlari, ularning jamoat markazlarini shaharsozlik va landshaft loyihalash jarayonlari;

turar joy tumanlari, dam olish qismlarini shaharsozlik loyihalash, qishloq hududlari, aholi yashaydigan va ishlab chiqarish qismlarini shaharsozlik loyihalash va kompleks qurish jarayonlari;

Oliy va o‘rta maxsus ta‘lim tizimi tashkilotlari, malaka oshirish va qayta tayyorlash, o‘rta maxsus, professional ta‘lim muassasalari;

ilmiy, texnikaviy va texnologik masalalar bilan bog‘liq akademik, ilmiy tadqiqot va muassasa tashkilotlari;

loyihalashda vaziyatli va tizimli yondoshuv tamoyillarini tatbiq etish, davlat va mahalliy qarorlarni amalga oshirish jarayonlari;

tashkilot va korxonalarda zamonaviy loyihalash tizimini tashkil etish, tashkiliy tuzilmalarni optimallashtirish, boshqaruv samaradorligini oshirish, mehnatni ragbatlantirish jarayonlari.

*Mutaxassislik bo‘yicha fan, texnika va texnologiyalarning zamonaviy yutuqlari, kadrlar buyurtmachilari talablaridan kelib chiqqan holda magistrning kasbiy faoliyat obyektlari tarkibigaga qo‘shimcha va o‘zgarishlar kiritilishi mumkin.*

### **1.2.3. Kasbiy faoliyatlarining turlari:**

ilmiy-tadqiqot faoliyati;

pedagogik faoliyat;

loyihalash -konstruktorlik-texnologik faoliyati;

tashkiliy–boshqaruv faoliyati;

ishlab chiqarish va xizmat ko‘rsatish faoliyati;

axborot-tahliliy faoliyat.

### **Kasbiy vazifalari:**

70730102 - Shaharsozlik va landshaft arxitekturasi mutaxassisligi bo'yicha Milliy malaka ramkasining 7-malaka darajasi hamda magistr kasbiy faoliyatlarining sohalari, ob'ektlari va turlariga muvofiq magistratura bitiruvchisi quyidagi kasbiy vazifalarni bajarishga qodir bo'lishi lozim:

**Pedagogik va ilmiy-tadqiqot faoliyatda:**

ilmiy, amaliy tadqiqotlarni o'tkazish, tajriba natijalarini tahlil qilish va ular asosida ilmiy asoslangan xulosalar chiqarish, ilmiy yangiliklarni kashf etish;

ilmiy maqolalar, ma'ruzalar, risola, o'quv adabiyotlar tayyorlash va tahrir qilish, o'tkazilayotgan tadqiqotlar mavzusi bo'yicha ilmiy sharxlarni ishlab chiqish, referatlar va bibliografiyalarni tuzish;

ilmiy adabiyotlar va internet tarmog'ida eng yangi ilmiy, konstruktorlik, texnologik va ekspluatatsion yutuqlar xaqidagi ma'lumotlarni maqsadga yo'nalgan xolda qidirish va topish;

ilmiy seminar, konferensiya va simpoziumlarni tashkil etish, o'tkazish hamda faol ishtirok etish;

mos mutaxassislik mavzusi bo'yicha ilmiy loyihalarni ishlab chiqish, yechilayotgan ilmiy muammolar va topshiriqlarning konseptual va nazariy modellarini ishlab chiqish;

oliy ta'lim, qayta tayyorlash va malaka oshirish, professional ta'lim muassasalarida mutaxassisligi bo'yicha pedagogik va o'quv-uslubiy faoliyat yuritish;

o'quv jarayonini va ilmiy faoliyatni tashkil qilish, zamonaviy axborot va pedagogik texnologiyalardan, o'qitishning texnik vositalaridan foydalanib, o'quv mashg'ulotlarini o'tkazish;

elektron (e-learning), mobil (m-learning) masofaviy axborot texnologiya va o'quv-metodik majmualarni mukammal o'zlashtirish;

pedagogik va ilmiy mahorati hamda malakasini muntazam oshirib borish.

**Loyihalash – konstruktorlik-texnologik faoliyatida:**

Barcha jarayonlarni ketma ketligini inobatga olib, ularni eskiz loyihasidan boshlab konstruktorlik jarayonlarigacha bo'lgan barcha texnologik talablarini bilishi lozim.

**Tashkiliy-boshqaruv hamda ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish faoliyatida:**

ishlab chiqarishni tashkil etish va boshqarish;

tashkilot va korxonalar faoliyatini strategik rivojlantirishda zamonaviy kasbiy bilimlarni qo'llash orqali boshqarish;

tashkilot, korxonalar va ularning alohida bo'linmalar tashkiliy tuzilmasini optimallashtirish, xodimlarning professional tayyorgarlik darajasini oshirib borishni

borishni tashkil qilish va boshqarish, mehnat salohiyatidan samarali foydalanishni rejalashtirish, mehnatni rag'batlantirish tizimini yo'lga qo'yish;

xo'jalik yurituvchi sub'ektlar faoliyatini rejalashtirish, tashkil etish va boshqarish, loyihalash va tahlil qilish bo'yicha uslubiy ko'rsatmalar, xuquqiy hamda me'yoriy-xuquqiy hujjatlar;

korxonalar tashkiliy-boqaruv faoliyatida qabul qilinadigan qarorlarni ijtimoiy-iqtisodiy samaradorlik mezonlari asosida ishlab chiqishda hamda qarorlarni muqobil variantini tanlab olishni asoslashda ishtirok etish;

zamonaviy axborot texnologiyalardan loyihalashda foydalanish, ishlab chiqarish jarayonlari monitoringi va sifatini baholash usullari va mexanizmlarini ishlab chiqish, ishlab chiqarish jarayonlari va resurslaridan foydalanishni rejalashtirish, favqulodda sodir bo'lishi mumkin bo'lgan xavf-xatarlarni tahlil qilish;

ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish korxonalariga investitsiyalarni jalb qilish mexanizmlarini qo'llash, investitsion loyihalarni ishlab chiqish va boshqarish.

#### **Axborot-tahliliy faoliyatida:**

boshqaruv qarorlarini qabul qilish uchun tashkilotning tashqi va ichki muxiti omillari to'g'risidagi ma'lumotlarni to'plash, qayta ishlash va tahlil qilish;

qaror qabul qilish, faoliyatni rejalashtirish va boqarish uchun ma'lumot to'plash, tashkilotning ichki axborot tizimini yaratish va uning ishlashini boshqarish;

tashkilotning ichki hujjat aylanishi tizimini ishlab chiqish va boshqarish, tashkilotlar faoliyatining turli ko'rsatkichlari bo'yicha ma'lumotlar bazasini yuritish;

loyihalar samaradorligini baholash;

axborot – tahlil faoliyati natijalari bo'yicha hisobot tayyorlash;

boshqaruv qarorlarining samaradorligini baholash.

#### **2. Kasbiy kompetensiyalariga qo'yiladigan talablar:**

ilmiy dunyoqarashga doir bilimlar tizimini egallagan bo'lishi, umummetodologik fanlar asosi, iqtisodiy muammolar va jarayonlarni mustaqil tahlil – qilish qobiliyatiga ega bo'lishi;

xorijiy tillardan birida kasbiy faoliyatiga oid hujjatlar va ishlar mohiyatini tushunishi, ilmiy tadqiqot va pedagogika metodologiyasini bilishi va kasbiy faoliyati undan zamonaviy ilmiy asosda kasb faoliyatida foydalana bilish;

Yangi bilimlarni mustaqil egallay bilishi, o'z ustida ishlashi va mehnat faoliyatini ilmiy asosda tashkil qila olishi;

o'zlashtirilgan bilimlarni ijodiy tanqidiy qo'rib chiqish va tahlil qilishi, ulardan ilmiy faoliyatida foydalana olishi;

o'z faoliyatida me'yoriy-huquqiy hujjatlardan foydalana olishi, o'zining kasbiy faoliyatida asosli mustaqil qarorlar qabul qila bilishi;

internet tarmog'idan axborotlarni olish, saqlash, qayta ishlashning asosiy usullari va vositalariga ega bo'lishi, axborotni boshqarish vositasi sifatida kompyuter bilan ishlash ko'nikmalariga ega bo'lishi;

axborot texnologiyalaridan foydalana olishi, axborotlashgan jamiyat sharoitida axborot texnologiyalarining mohiyati va ahamiyatini tushunish, axborot xuruji xavfi va tahdidlarni anglash, axborot xavfsizligining asosiy talablariga rioya qilish qobiliyatiga ega bo'lishi.

### **2.1. Kasbiy kompetensiyalar:**

ilmiy, amaliy tadqiqotlar olib borish, tajriba natijalarini qayta ishlash va ular asosida ilmiy asoslangan xulosalar chiqarish, ilmiy maqolalar tayyorlash va tahrir qilish, ilmiy seminar, konferensiya va simpoziumlarni tashkil etish, o'tkazish, ilmiy loyihalarni ishlab chiqish ko'nikmalariga ega bo'lish;

pedagogik faoliyatida axborot va pedagogik texnologiyalardan foydalanishni bilish;

ta'lim sifati va samaradorligini oshirishga innovatsion yondashishni bilish;

ilmiy faoliyati natijalari bo'yicha davlat va xorijda e'lon qilingan loyihalarda ishtirok etish uchun loyiha tayyorlash ko'nikmalariga ega bo'lishi;

davlat, nodavlat va notijorat tashkilotlari tomonidan e'lon qilingan loyihalarda ishtirok etish uchun loyiha tayyorlash malakalariga ega bo'lishi;

ishlab chiqarishni tashkil etish va boshqarish ko'nikmalariga ega bo'lishi;

tashkilot, korxonalar va ularning alohida bo'linmalar tashkiliy tuzilmasini optimallashtirish, xodimlarning professional tayyorgarlik darajasini oshirib borishni tashkil qilish va boshqarish, mehnat salohiyatidan samarali foydalanishni rejalashtirish, mehnatni rag'batlantirish tizimini yo'lga qo'yish ko'nikmalariga ega bo'lishi;

tarmoqlar va sohalar bo'yicha strategik rejalarni ishlab chiqish, boshqaruv sohasida yechilayotgan ilmiy muammolarning konseptual hamda nazariy modellarini ishlab chiqish va ilmiy-tadqiqot natijalari bo'yicha tavsiyalar va ishlanmalarni amaliyotga tatbiq etishni bilish;

korxonalar va tashkilotlar tashkiliy tuzilmalarini optimallashtirish, kadrlarni boshqarish strategiyasini qo'llash, tadbirlarni rejalashtirish va amalga oshirish ko'nikmalariga ega bo'lish;

strategik va operatsion boshqaruv vazifalarini, ishni tashkil qilish, boshqarishning zamonaviy texnologiyalarini, xodimlar jamoasiga yetakchilik qilishni bilish;



boshqaruv qarorlarini qabul qilishda, ularni aniq boshqaruv vazifalariga moslashtirish orqali iqtisodiy, moliyaviy va tashkiliy-boshqaruv modellarini shakllantirishda miqdoriy va sifatli tahlil qilish ko'nikmalariga ega bo'lish;

korporativ axborot tizimlarini, loyiha oldi tahlil va loyiha hujjatlarini tayyorlashni, ma'lumotlar bazasini yuritishni bilish;

loyihalarning iqtisodiy samaradorligini baholash, tarmoqlar va sohalar bo'yicha hisobotlarni tuzish hamda ularni sharxlash ko'nikmalariga ega bo'lish;

me'yoriy-huquqiy hujjatlarni espertizadan o'tkazishni bilish.

kvalifikatsiyalariga ega bo'lish mumkin.

### 3. Amaliyotlarga qo'yiladigan talablar.

Magistratura mutaxassisligi bo'yicha quyidagi amaliyot o'tkaziladi:

Ilmiy amaliyot (stajirovka) – umumkasbiy va ixtisoslik fanlaridan olgan nazariy bilimlarni korxonada va tashkilotlarda tadqiq etish va olingan ilmiy natijalarni ilmiy tadqiqot ishiga tadbiiq etishni shakllantirishga qaratiladi.

### 4. Fanlar katalogining tuzilishi:

T.r.	Fanning malakaviy kodi	O'quv fanlari, bloklar va faoliyat turlarining nomlari	Umumiy yuklamaning hajmi, soatlarda	Kredit miqdori	Fan o'tiladigan semestr
<b>1.00</b>		<b>Umumiy Majburiy fanlar</b>			
1.01	ITM1104	Ilmiy-tadqiqot metodologiyasi	120	4	1
1.02	MFO'M1104	Maxsus fanlarni o'qitish metodikasi	120	4	1
1.03	ZShM1110	Zamonaviy shaharsozlik muammolari	300	10	1,2
1.04	SHQHBL1110	Shahar va qishloq hududlarini barqaror loyihalash	300	10	1,2
1.05	SHR1110	Shahar rekonstruksitasi	300	10	1, 2
1.06	SHLTENA1106	Shahar landshaftini tashkil etishning nazariy asoslari	180	6	2
1.07	SHHKOTQU1204	Shaharsozlik holatini ko'p omilli tahlil qilish usullari	120	4	2
1.08	ShIMHT 1304	Shaharsozlik loyihalashda me'yoriy hujjatlar tizimi	120	4	3
1.09	ShHSLTFT 1304	Shaharlarni hududlashtirish sohasidagi loyiha va tadqiqot faoliyati tahlili	120	4	3
<b>2.00</b>		<b>Tanlov fanlari</b>	<b>120</b>	<b>4</b>	<b>3</b>
2.00		<i>Tanlov fanlar</i>	<i>120</i>	<i>4</i>	<i>3</i>
<b>3.00</b>		<b>Ilmiy faoliyat</b>	<b>1800</b>		
3.01	ITIMDT1130	Ilmiy-tadqiqot ishi va magistrlik dissertatsiyasini tayyorlash	900	<b>30</b>	1,2,3,4
3.02	IPI1116	Ilmiy-pedagogik ish	480	<b>16</b>	1,2,3,4
3.03	IA(S)1414	Ilmiy amaliyot (stajirovka)	420	<b>14</b>	4
		<b>Jami:</b>	<b>3600</b>	<b>120</b>	
	Kvalifikatsiya	Shaharsozlik va landshaft arxitekturasi			
<b>4.00</b>		<b>Attestatsivalar</b>	<b>540</b>		
		<b>HAMMASI</b>	<b>4140</b>		

## **Bibliografik ma'lumotlar**

UDK: 002:651.1/7  
QKC 01.040.01

Gurux T55

---

### **Tayanch so'zlar:**

kasbiy faoliyat turi, kompetensiya, modul, ta'lim yo'nalishi, kasbiy faoliyat obekti, kasbiy faoliyat sohasi, magistraturaning o'quv reja va fan dasturi (magistratura dasturi), profil, o'qib- o'rganish natijalari, o'quv sikli, bino, inshoot, loyiha, barqaror shaharsozlik, urbanistika, landshaft loyihalash, eko shaharlar, aqli shaharlarni loyihalash, shahar kompozitsiyasi, kichik shaharlarni rejalashtirish, vertikal ko'kalamzorlashtirish, bog' va parklarni loyihalash, chorbog', shaharsozlik nazariyasi, landshaftni tashkil etish, mutanosiblik, manbalardan foydalanish, ansambllar.

Ishlab chiquvchilar, kelishilgan asosiy turdosh oliy ta'lim muassasalari hamda kadrlar iste'molchilari


**ISHLAB CHIQLGAN:**

**Toshkent arxitektura-qurilish universiteti**  
Rektori v.v.b.  B.A. Tulaganov  
2024 yil « \_\_\_\_\_ » \_\_\_\_\_

**KELISHILGAN:**

O'zbekiston Respublikasi  
Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi  
huzuridagi Oliy ta'limni rivojlantirish  
tadqiqotlari va ilg'or texnologiyalarni  
tatbiq etish markazi

**“O'ZSHAHARSOZLIK LITI” DUK**


Direktor  M. Boltaboyev


Direktor  B.X. Elmuradov  
2024 yil « \_\_\_\_\_ » \_\_\_\_\_  
M.O. \_\_\_\_\_

2024 yil « \_\_\_\_\_ » \_\_\_\_\_  
M.O. \_\_\_\_\_

Qurilishda texnik me'yorlash va  
standartlashtirish ilmiy-tadqiqot instituti

**Toshkent Uyjoy LITI AJ**

Direktor  SH. Sodiqov  
2024 yil « \_\_\_\_\_ » \_\_\_\_\_  
M.O. \_\_\_\_\_

Direktor  B.B. Ubaydullayev  
2024 yil « \_\_\_\_\_ » \_\_\_\_\_  
M.O. \_\_\_\_\_

2024 yil « \_\_\_\_\_ » \_\_\_\_\_  
M.O. \_\_\_\_\_  
**TOSHUYJOY LITI**

**Toshkent arxitektura-qurilish universiteti**  
**70730102 Shaharsozlik va landshaft arxitekturasi magistratura mutahassisligi bo'yicha**  
**malaka talablari va o'quv rejasining ishlab chiquvchilar, turdosh oliy ta'lim**  
**muassasalari va asosiy kadrlar iste'molchilari o'rtasida**

**KELISHUV DALOLATNOMASI**

Toshkent sh.

“ ” \_\_\_\_\_ 2024 yil

Biz quyida imzo chekuvchilar – “O'ZSHAHARSOZLIKLITI” DUK bosh direktori B.X.Elmuradov, “Toshkent uy-joy LITI” AJ bosh direktori B.B. Ubaydullayev, “Qurilishda texnik me'yorlash va standartlashtirish ilmiy-tadqiqot instituti” direktori Sh.Sodiqov, Toshkent arxitektura-qurilish universiteti rektori v.v.b. B.A.Tulaganov birgalikda TAQUda ishlab chiqilgan quyidagi magistrature mutahassisligining malaka talablari va o'quv rejasi mazmuni bilan tanishib chiqib, kelishuv haqida ushbu dalolatnomani tuzdik:

**70730102 Shaharsozlik va landshaft arxitekturasi magistratura mutahassisligi.**

Malaka talablari hamda o'quv rejani ishlab chiqilishida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 20 apreldagi “Oliy ta'lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida” PQ-2909-son, 2017 yil 27 iyuldagi “Oliy ma'lumotli mutaxassislar tayyorlash sifatini oshirishda iqtisodiyot sohalari va tarmoqlarining ishtirokini yanada kengaytirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi PQ-3151-son, 2018 yil 5 iyundagi “Oliy ta'lim muassasalarida ta'lim sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarda faol ishtirokini ta'minlash bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida”gi PQ-3775-son, 2022 yil 8 noyabrdagi “Arxitektura-qurilish sohasida kadrlar tayyorlash tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi PQ-416-son, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar mahkamasining 2023 yil 2 maydagi “Arxitektura-qurilish muhandisligi sohalari rahbar va mutahassislari hamda ishchi kasb egalarining malakasini oshirishi tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi 179-son Qarorlariga hamda oliy ta'lim sohasini tartibga soluvchi boshqa me'yoriy-huquqiy xujjatlar, shuningdek, xalqaro talablarga asoslangan.

Mazkur malaka talablari va o'quv rejalarining ishlab chiqilishida asosiy kadrlar iste'molchilari tomonidan qo'yilgan talablar ham inobatga olingan.

Ta'lim yo'nalishi bo'yicha malaka talablari o'quv reja va fan dasturlari xamda boshqa hujjatlarni yaratish uchun asos bo'lib hisoblanadi.

Ishlab chiqilgan malaka talablari va o'quv rejani o'rnatilgan tartibda tasdiqqa tavsiya etish mumkin.

**“O'ZSHAHARSOZLIKLITI” DUK bosh  
direktori**

B.X. Elmuradov

**“Qurilishda texnik me'yorlash va  
standartlashtirish ilmiy-tadqiqot instituti”  
direktori**

SH. Sodiqov

**“Toshkent Uyjoy LITI” AJ bosh direktori**

B.B. Ubaydullayev

**Toshkent arxitektura-qurilish universiteti  
rektori v.v.b.**

B.A. Tulaganov